

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 338.45:677:621.9(575.1)**

NAJMIDDINOV YAHYO FAZLIDDIN O‘G‘LI

**SANOAT KORXONALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI
OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.n., prof. I.S.Xotamov

Toshkent – 2025 yil

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I BOB.	SANOAT KORXONALARIDA ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	15
§1.1.	Sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari	15
§1.2.	Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirish usullari va uning iqtisodiy-ekologik ahamiyati	26
§1.3.	Korxonalarda energiya samaradorligiga erishish bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan samarali foydalanish yo'llari	39
	Birinchi bob bo'yicha xulosa	50
II BOB.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA ENERGIYADAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI VA TAHLILI	52
§2.1.	O'zbekistonda energiya manbalari va sanoat korxonalarida ulardan foydalanishning hozirgi holati tahlili	52
§2.2.	To'qimachilik sanoati korxonalarida energiyadan foydalanish tahlili ("Toshbuloq teks" hamda "Osborn tekstil"MCJH shaklidagi korxonalar misolida).....	68
§2.3.	To'qimachilik sanoati korxonalarida energiya samaradorligiga omillar ta'sirini energiya intensivligi indikatorini va energiya ta'sir koeffitsiyentlari orqali baholash.....	85
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	95
III BOB.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	97
§3.1.	To'qimachilik sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmi va uni takomillashtirish	97
§3.2.	To'qimachilik sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish yo'nalishlari va mexanizmi	113
§3.3.	To'qimachilik sanoatida energiya manbalaridan samarali foydalanish istiqbollari va prognozlari ("Toshbuloq teks" hamda "Osborn tekstil"MCJH shaklidagi korxonalar misolida).....	123
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa	145
	XULOSA	148
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	151
	ILOVALAR	162

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliligi va zarurati. Bugungi kunda energiya samaradorligi iqtisodiyotning eng muhim ajralmas bir bo‘lagi sifatida iqtisodiy jarayonlarda namoyon bo‘lmoqda. Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya agentligi (IRENA) 2024-yilgi berilgan ma’lumotlarda ham butun dunyo energiya samaradorligi bo‘yicha 2030-yilgacha amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan¹. Shu bilan birga, energiya iste’moli, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda energiya samradorligiga bo‘lgan talab nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki atrof muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish hamda tabiiy resurslar iste’molini kamaytirish jihatdan ahamiyatli hisoblanadi.

Jahon mamlakatlarida sanoat korxonalarining energiyaga bo‘lgan talabini uzluksiz ta’minlash jahon miqyosdagi muammo sifatida qaralmoqda, boshqa tomondan esa iste’mol uzluksizligi va talabni maqsadli qondirish, energiya samaradorligiga erishish va qayta tiklanuvchi, kam uglerodli toza energiya manbalarini yaratish va ulardan samarali foydalanish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Jahon energetika agentligi (IEA) tomonidan jahon hamjamiyatiga taqdim etilgan ma’lumotlarda 2030 yilga kelib global energiya iste’moli 1,3-1,5 barobarga oshishini prognoz qilmoqda. Global miqyosda 2040-yilgacha energiya balansi ko‘mir iste’molining global iste’moldagi ulushi 60 foizga, neft 70 foizga, tabiiy gaz ulushi 10 foizga, energetika va atom elektr stansiyalarining ulushi 88 foizga, gidroelektr stansiyalari 50 foizga qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi 220 foizga oshadi². Shuning uchun, mamlakatimizda ham sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi global integratsiya va keskin raqobat sharoitida jahon energiya samaradorligiga erishish hamda barqaror o‘sish suratlarini ta’minlash shart-sharoitlari va yo‘nalishlarini aniqlash, samarali iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish bugungi kunda har bir mamlakatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

¹ International renewable energy agency (irena). (2024). World energy transitions outlook: 1.5 °c pathway – summary for policy makers. abu dhabi: irena. <https://www.irena.org>

² Jahon energiya modeli IEA-2020

O‘zbekistonda sanoat korxonalarining energiya samaradorligi borasida olib borilayotgan islohotlar, yoqilg‘i energetika kompleksini sifatli va samarali rivojlantirishni ta‘minlash, muqobil energiyaga asoslangan yangi texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarida energiya sarfini kamaytirish, toza energiya quvvatlarini yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish, barqaror rivojlanish maqsadlarini amaliyotga tatbiq qilish, barqaror rivojlanish tendensiyalari va omillarini hisobga olgan holda sanoat korxonalarining energiya kompleksini barqarorlashtirishni ta‘minlashda energiya resurslaridan foydalanishning mintaqaviy imkoniyatlarini yaxshilashda energiya samaradorligi loyihalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsad qilingan.

Bugungi kunda sanoat mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal va barqaror rivojlanishi uchun drayver sifatida ko‘rilmoqda va sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha bir qator ishlar olib borilmoqda. Sanoat tarmoqlarining barchasiga e‘tibor qaratsak energiya eng asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida qaralib, uning samaradorligini oshirish borasida tegishli dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 9-iyulda qabul qilingan hamda Senat tomonidan 2024-yil 10-iyulda ma‘qullangan “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi³ qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston - 2030” PF-158-son⁴ farmoni 51, 52 hamda 65 maqsadlarida energiya samaradorligini oshirish borasida aniq strategik maqsadlar belgilab o‘tilgan. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2019 yil 27 martdagi “O‘zbekiston Respublikasining elektroenergetika tarmog‘ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PQ-4249-son⁵ qarori, O‘zbekiston Respublikasi energetika vazirining 2020-yil 28-apreldagi “2020-2030-yillarda

³ O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 9-iyulda qabul qilingan hamda Senat tomonidan 2024-yil 10-iyulda ma‘qullangan “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi qonuni.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” PF-158-son farmoni

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2019 yil 27 martdagi “O‘zbekiston Respublikasining elektroenergetika tarmog‘ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PQ-4249-son qarori

O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta’minlash konsepsiyasi” 70-son⁶ loyihasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son⁷ Farmonida ko‘rsatib o‘tilgan 48-maqsad: Sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish, 51-maqsad: “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish hamda 52-maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlari va aholini zarur energiya resurslari bilan uzluksiz ta’minlash vazifalari davlatimiz rahbari tomonidan asosiy maqsad sifatida belgilanishi ushbu tadqiqot ishining bugungi kunda ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan jahon va mamlakatimiz miqyosida belgilangan rivojlanish maqsadlari va strategiyalari, hukumat dasturlari va boshqa rivojlanish dasturlarida belgilab qo‘yilgan vazifalarni samarali amalga oshirilishini ta’minlashda mamlakat miqyosida va hududlarda sanoat sohasida energiya samaradorligini ta’minlash masalasi dolzarb hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda mazkur dissertatsiya doirasida olib borilgan tadqiqotlar muayyan darajada o‘z hissasini qo‘shadi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq amalga oshirildi “I. Demokratik davlat va huquqiy jamiyat ma’naviy-axloqiy va moddiy-ma’naviy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Sanoat sohasida energiya ta’minoti va uning samaradorligini ahamiyatini iqtisodiyotning bugungi kundagi fundamental asosi, rivojlanish bosqichlari, kelajakda mavjud tahdidlar va rivojlanish borasida

⁶ O‘zbekiston Respublikasi energetika vazirining 2020-yil 28-apreldagi “2020-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta’minlash konsepsiyasi” 70-son loyihasi.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son farmoni.

mavjud to'siqlar borasida klassik iqtisodiyotning asoschilari o'z asarlarida aytib o'tishgan.

Jumladan, Adam Smith o'zining "The Wealth of Nations"⁸ asarida ishlab chiqarish samaradorligini mehnat taqsimoti va resurslardan oqilona foydalanish bilan bog'lagan. Uning fikricha, iqtisodiyotning barqaror o'sishi tabiiy resurslardan isrofsiz foydalanishga chambarchas bog'liqdir. David Ricardo "On the Principles of Political Economy and Taxation"⁹ asarida kamayib boruvchi hosildorlik nazariyasini ilgari surgan. Unga ko'ra, ishlab chiqarishda resurslar cheklangan bo'lib, ularni samarali taqsimlash iqtisodiy rivojlanishning muhim omilidir. Bu g'oya hozirgi kunda energiya resurslari tanqisligi va samaradorligini oshirish zaruriyati bilan uyg'unlashadi. Karl Marxning "Das Kapital"¹⁰ asarida ishlab chiqarish jarayonida foyda ortidan quvish resurslarning haddan tashqari ekspluatatsiyasiga olib kelishini tanqid qilgan. Bu esa hozirgi ekologik muammolar va energiya samaradorligini oshirish zarurati bilan uzviy bog'liqdir. Shunday qilib, klassik iqtisodiyot namoyandalari bevosita energiya samaradorligi tushunchasini qo'llamagan biroq, ular resurslardan oqilona foydalanish, kamayib boruvchi hosildorlik, resurs tanqisligi va barqaror rivojlanish kabi tamoyillar orqali zamonaviy energiya ta'minoti va samaradorligi muammolariga nazariy asos yaratib berganlar.

Sanoat korxonalarida energiya manbalaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish, jumladan sanoat ishlab chiqarish korxonalarida energiya samaradorligiga erishish va yanada yaxshilash mexanizmlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlarini ko'plab xorijlik olimlarning va ilmiy markazlarning ishlanishlarida o'z ifodasini topgan. Ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan g'arb olimlaridan S. Tanriverdi¹¹, Angel J.

⁸ Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: W. Strahan and T. Cadell.

⁹ Ricardo, D. (1817). *On the Principles of Political Economy and Taxation*. London: John Murray.

¹⁰ Marx, K. (1867). *Das Kapital. Kritik der politischen Ökonomie*. Hamburg: Otto Meissner Verlag.

¹¹ Saliha Tanriverdi, "Avancements in energy economics: historical perspectives, modeling persistence and time-varying cointegration", PhD thesis, september 2024, pp 252

Martinez Rodriguez¹², Nicholas Woodruff Fette¹³, Kang Shen¹⁴, M.B. Adetayo¹⁵, Mohammadamin Mobtahej¹⁶, M.I.Kulat¹⁷, Aqsa Rana¹⁸, S. Karlsson¹⁹, Wu Ge²⁰, A. Ghannadi²¹, F. Silva va O. Valente²², J. Haraldsson²³, M. Waldemarsson²⁴, B.Sh. Shichani²⁵, M. Santos²⁶, E. Zeyen²⁷lar o‘z ilmiy ishlarida energiya samaradorligi, uning komponentlari va energiya samaradorligining bugungi kundagi ahamiyati haqida ilmiy izlanishlar olib borganlar. Yuqoridagi ilmiy ishlarda umumiy energiya sektorining iqtisodiy jarayonlarga ta’siri hamda sanoat subyektlarida energiya iste’molining ahamiyati haqida umumiy nazariyalar aytib o‘tilgan, ammo, sanoat korxonalarida energiya samaradorligini narx ishlab chiqarilayotgan mahsulotlardagi ulushi, yashil energetika tizimlari, kam uglerodli, toza energiya manbalari asosida sanoat 4.0 konsepsiyasi doirasida sanoat korxonalarida energiya samaradorligiga erishish bo‘yicha energiya samaradorligini oshirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha deyarli ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida energiya samaradorligi va uning sanoat korxonalaridagi ahamiyati, energiya samaradorligi mexanizmi, uning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyati, sanoat korxonalarida energiya samaradorligini keng qo‘llashga qaratilgan amaliy, uslubiy hamda ilmiy

¹² Angel J. Martinez Rodriguez, Comparative Analysis of Energy Efficiency Recommendations: A Case Study between Guatemala and the United States, Master of Science thesis, Arizona State University, August 2024, pp 93

¹³ Nicholas Woodruff Fette, “Enabling Systems for Energy Transitions”, Arizona State University, August 2024, pp 205

¹⁴ Kang Shen, “Energy efficiency and life cycle analysis of sustainable battery-powered electric vehicle technologies”, PhD thesis, Case western reserve university, may 2024, pp 148

¹⁵ M.B.Adetayo, “Transition of Turkey’s energy sector in the context of circular economy and European’s green deal”, PhD thesis, Istanbul, 2024, pp 212

¹⁶ Mohammadamin Mobtahej, “Renewable energy-based optimization models for energy management systems”, PhD thesis, Lamar University, August 2024, pp 129

¹⁷ M.I.Kulat, “Policy-driven sustainable energy innovation: Integrating offshore solar, wind and artificial reef”, PhD thesis, January 2024, pp 219

¹⁸ Aqsa Rana, “Ábrahám Géza Pattantyús Doctoral School of Mechanical Engineering Faculty of Mechanical Engineering”, PhD thesis, Budapest University of Technology, Budapest, 2024, pp 132

¹⁹ S. Karlsson, “Energy infrastructures for low-carbon-emitting industries”, PhD thesis, Chalmers university of technology, Gothenburg, Sweden 2024, pp 80

²⁰ Wu Ge, “An Econometric analysis of energy demand and carbon emissions in China’s economy”, PhD thesis, Nagoya, Japan, 2022, pp 136

²¹ A. Ghannadi, “Turkiyenin enerji ekonomiki politigi ve yenilebelilir enerji politikasi”, PhD thesis, Istanbul, Haziran 2024, pp 189

²² F. Silva va O. Valente, “Impact of Eutaxonomy on renewable energy investments”, October 5, 2024, pp 104

²³ Joakim Haraldsson, “Improved Energy Efficiency in the Aluminium Industry and its Supply Chains”, Mongraphy, Sweden Linköping 2020, pp 149

²⁴ Martin Waldemarsson, “Energy and Production Planning for Process Industry Supply Chains”, PhD thesis, Division of Production Economics Department of Management and Engineering, Linköping University, 2012

²⁵ B.Sh. Shichani, “Development of a small scale triple effect desalination unit driven by solar energy”, PhD thesis, Universidade do Porto July 2024, pp 238

²⁶ Maria Teresa Morais Sarmento Lobo dos Santos, “Business Models for Energy Communities with Vulnerable Consumers”, October 24, 2024, pp 96

²⁷ Elisabeth Zeyen, “Transforming the European Energy System: The Impact of Building Efficiency and Green Hydrogen Production”, DSc thesis, Berlin 2024, pp 323

yondashuvlarni ishlab chiqish borasida N.N. Sergeyev²⁸, J.R.Guseynov²⁹, A.V. Osipov³⁰, I.A. Gerasimov³¹, I.M. Galyutdinov³², Oylabex Raisa³³, A.S. Mozgova³⁴, A.A. Boyko³⁵ kabi olimlar ushbu sohada tadqiqotlar olib borishgan. Mazkur olimlarning ishlarida sanoat korxonalarida energiya samaradorligini boshqarish, sanoat korxonalarida hamda umumiy jihatdan energiya samaradorligiga erishishning nazariy hamda amaliy jihatlari ko‘rib chiqilgan.

Respublikamizning iqtisodchi olimlaridan G.J. Allayeva³⁶, G.N. Nigmatullayeva³⁷, S.U. Buzrukhonov³⁸, E.I. Nasirov³⁹, A.A. Mirzaxalilova⁴⁰, S.S. Fayziyev⁴¹, F.J. Raximov⁴², G.R. Madraximova⁴³ va boshqalar energiya samaradorligi, uning xavfsizligi, toza energiyaning energiya samaradorligidagi ahamiyati, sanoat korxonalarida energiya samaradorligiga erishishda qayta tiklanuvchi, toza energiyaning ahamiyati hamda sanoat korxonalarida energiyadan

28 Н.Н. Сергеев, “Управление Энергосбережением Промышленных Предприятий”, Автореферат, Ижевск-2012, pp 23

29 J.R.Guseynov, “Международное Экономическое Сотрудничество Азербайджанской Республики В Топливо Энергетической Сфере”, Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Москва – 2018, pp 205

30 A.V. Osipov, “Совершенствование Организационно-Экономического Механизма Управления Энергоэффективностью Промышленности (на примере машиностроительных предприятий Приморского края)”, PhD dissertatsiya, Владивосток 2021, pp

31 I.A. Gerasimov, “Формирование Экономического Механизма Энергоснабжения Организации В Условиях Реформирования Естественных Монополий”, диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Москва 2014, 166 страниц,

32 Galyautdinov Ilyas Maratovich, “Повышение экономической эффективности добычи нефти на поздней стадии разработки месторождения на основе внедрения энергосберегающих мероприятий”, диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Санкт-Петербург – 2016, pp-169

33 Ойлепбах Раиса, “Управление Процессами Энергосбережения На Промышленных Предприятиях (на примере металлургического производства)”, диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук.

34 Мозгова Анна Станиславовна, “Организационно-экономический механизм повышения энергоэффективности нефтегазовых предприятий на основе энергетического аудита”, диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Смоленск – 2014, pp-158

35 Бойко Александр Александрович, “Мирополитические последствия снятия ограничений на поставку технологий и оборудования ядерного топливного цикла в Южную Азию”, Диссертация на соискание ученой степени кандидата политических наук, Москва – 2017, pp-234

36 G.J. Allayeva “Совершенствование методологии организационно-экономического механизма устойчивого развития предприятий топливно-энергетического комплекса республики узбекистан”, DSc thesis, 2021

37 Gulchekhra N. Nigmatullaeva, Sovershenstvovanie mekhanizmov obespecheniya ekonomicheskoy bezopasnosti elektroenergeticheskoy otrasli Uzbekistana (PhD diss., Tashkent State University of Economics, 2022).

38 Buzrukhonov, S.S., 2023. Sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. PhD thesis. Tashkent State University of Economics.

39 E.I. Nasirov, “Barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida “Yashil” loyihalarini moliyalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish”, DSc, Toshkent 2025, 163-sahifa

40 A.A. Mirzaxalilova, “Совершенствование Механизмов Обеспечения Устойчивого Развития Предприятий Топливо-Энергетического Комплекса Узбекистана”, диссертация на соискание ученой степени доктора философии (phd) по экономическим наукам, ташкент - 2024 год, pp-157

41 Fayziyev, S.S., 2024. Energetika sohasida infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish. PhD thesis. Tashkent State University of Economics.

42 Raximov, F.J., 2025. Kimyo tolalari asosida to‘qimachilik sanoati korxonalarining diversifikatsiya faoliyatini jadal rivojlantirish. PhD thesis. Tashkent State University of Economics.

43 Madraximova, G.R., 2024. To‘qimachilik sanoati tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish. DSc thesis. Tashkent State University of Economics

samarali foydalanish borasida ilmiy ishlar olib borishgan va ushbu sohaning rivojlanishiga munosib hissa qo'shishgan.

Yuqorida aytib o'tilgan olimlar o'zlarining ilmiy izlanishlarining asosiy urg'usini energiya xavfsizligi, energiya boshqaruvi, energiya sohasida toza energiya hamda qayta tiklanuvchi energiyaning o'rni, kam uglerodli energiya, sanoat korxonalarida kam uglerodli, toza hamda qayta tiklanuvchi energiyaning ahamiyatini, uning texnik hamda texnologik jihatlarini, qayta tiklanuvchi energiyadan foydalangan holatda iqtisodiy samaradorlikka erishish hamda raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan izlanishlarni olib borishga. Biroq sanoat korxonalarida energiya samaradorligiga erishning texnik, iqtisodiy, ijobiy hamda salbiy samarasi borasida, toza energiyadan foydalanish asosida energiya samaradorligiga erishishning boshqaruv metodologik asoslari borasida, an'anaviy energiya bilan qayta tiklanuvchi energiyaning interaktiv jarayonlarining tashkiliy iqtisodiy mexanizmlari borasida ham ilmiy izlanishlar olib borish O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy bog'inlaridan bo'lgan sanoat korxonalarida energiya samaradorligiga erishning ham zamonaviy ham o'z imkoniyatdan kelib chiqqan holatdagi tahlili muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq tadqiqotlar loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi To'qimachilik sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarida energiya samaradorligi mexanizmlarini nazariy asoslarini o'rganib chiqish;

sanoat korxonalarida energiya samaradorligi mexanizmlari bo'yicha xorij tajribasini o'rganish va ijobiy tomonlaridan O'zbekistonda foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligiga omillar ta'sirini o'rganish;

sanoat korxonalarida energiyadan samarali foydalanishni CASCADE tamoyiliga asoslangan qayta taqsimlash mexanizmi asosida takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish xalqaro sifat ko'rsatkichi ISO 50001 standartidan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

sanoat korxonalarida energiyadan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish asosida prognoz qiymatlarini shakllantirish.

Tadqiqot obyekti sifatida "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibida faoliyat olib borayotgan to'qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy faoliyati tanlab olingan.

Tadqiqot predmeti to'qimachilik sanoat korxonalarida energiya samaradorligi mexanizmini takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, sabab-oqibat hamda natija omil tahlil, SWOT tahlil, PESTLE tahlil, PDCA tahlil, tanlanma kuzatuv, ekspert tahlil, grafik tahlil, so'rovnoma hamda regression va korrelyatsion tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

metodologik yondashuvga ko'ra, ishlab chiqarish jarayonining "**energiya intensivligi**" tushunchasining iqtisodiy mazmuni to'qimachilik korxonalarining energiya tejamkorlik darajasiga erishish, ekologik yukni minimallashtirish, resurslar unumdorligini oshirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga hissa qo'shish uchun qiymat zanjiri bo'ylab energiya sarfini optimallashtirish nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

to'qimachilik sanoati korxonalarida energiya samaradorligini oshirishda "cascade" tamoyiliga asoslangan qayta taqsimlash mexanizmini joriy etish natijasida 15-25% energiya tejalihi, ishlab chiqarish xarajatlarini barqarorlashtirish,

qayta tiklanuvchi energiya bilan uyg'unlikni ta'minlash natijasida 20-30% issiqxona gazlari emissiyasi qisqarishi asoslangan;

to'qimachilik korxonalarining energiya samaradorlik indeksini baholash uslubi energiya intensivligi indikatori va energiya ta'sir koeffitsiyentlarini hisobga olgan holda "kritik energiya holati" (0,00-0,19), "samarasiz holat" (0,20-0,39), "moddiy o'rta samaradorlik" (0,40-0,59), "barqaror samaradorlik" (0,60-0,79), innovatsion samaradorlik" (0,80-1,00) shkalalarini kiritish asosida takomillashtirilgan;

"Toshbuloq teks" hamda "Osborn tekstil" MCHJ to'qimachilik sanoati korxonalarida energiya sarfi hajmi, ishlab chiqarish quvvati, mahsulot hajmi, energiya xarajatlarining yalpi qiymatdagi ulushi, energiya samaradorligi, energiya intensivligi ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar prognoz qiymatlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

energiya samaradorligi bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tajribasi o'rganib chiqilgan hamda mamlakatimizdagi asosiy afzalliklar hamda kamchiliklar xususiyatlari aniqlangan;

"energiya intensivligi" tushunchasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar tizimlashtirilgan;

to'qimachilik sanoati korxonalarida energiya samaradorligi mexanizmi "cascade" tamoyiliga asoslangan qayta taqsimlash mexanizmi bo'yicha taklif ishlab chiqilgan;

to'qimachilik korxonalarining energiya samaradorlik indeksini baholash uslubi takomillashtirilgan;

to'qimachilik sanoati korxonalarida energiya samaradorligini oshirishga miqdoriy omillarning ta'siri ekonometrik tahlil asosida aniqlangan.

Tadqiqot ishlarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari ishonchliligi sanoati rivojlangan mamlakatlarning energiya samaradorligi tajribalarini o'rganish va umumlashtirish, sanoat korxonalarida toza energiya manbalaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish borasida mavjud ilmiy tadqiqot

ishlarini qiyosiy hamda tanqidiy jihatdan tahlil qilish, davlat statistika qo‘mitasi, obyekt sifatida tanlab olingan tashkilotlardan olingan rasmiy ma’lumotlar asosida va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalari asosida shakllanganligi va ularni samarali tahlil qilish, jumladan PESTLE tahlil, SWOT tahlil, PDCA tahlil hamda stata dasturlash tilidan foydalangan holda ekonometrik tahlillar amalga oshirish orqali qayta ishlanganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi. Sanoat korxonalarida energiya samaradorligi oshirish mexanizmni takomillashtirish orqali ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy natijalar asosida:

metodologik yondashuvga ko‘ra, ishlab chiqarish jarayonining “energiya intensivligi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni to‘qimachilik korxonalarining energiya tejamkorlik darajasiga erishish, ekologik yukni minimallashtirish, resurslar unumdorligini oshirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga hissa qo‘shish uchun qiymat zanjiri bo‘ylab energiya sarfini optimallashtirish nuqtai nazaridan takomillashtirish bilan bog‘liq nazariy va uslubiy ma’lumotlardan oliy o‘quv yurtlari uchun tavsiya etilgan “Yashil iqtisodiyot” nomli dasrlik tayyorlashda foydalanilgan. (Darslik Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy kengashining 2024-yil 27-dekabrda 448-sonli qaroriga asosan chop etilgan. ISBN:978-9910-01-498-7). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida to‘qimachilik sanoati korxonalarida hamda talabalarda sanoat korxonalarida “energiya intensivligi” tushunchasi bo‘yicha nazariy bilimlar jahon tajribasidan kelib chiqib asoslandi;

to‘qimachilik sanoati korxonalarida energiya samaradorligini oshirishda “cascade” tamoyiliga asoslangan qayta taqsimlash mexanizmini joriy etish natijasida 15-25% energiya tejallishi, ishlab chiqarish xarajatlarini barqarorlashtirish, qayta tiklanuvchi energiya bilan uyg‘unlikni ta’minlash natijasida 20-30% issiqxona gazlari emissiyasi qisqarishi asoslanganligi bo‘yicha taklif “O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasining “Ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish boshqarmasi” faoliyatida amaliyotga joriy qilingan (“O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasining 2025-yil 25-sentyabrdagi № 02/25-2274 sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida to‘qimachilik sanoati

korxonalarida “cascade” tamoyiliga asoslangan qayta taqsimlash mexanizmini joriy etish energiya tejamkorligini ta'minlab, xarajatlarni kamaytiradi, eksport salohiyatini oshiradi, ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi va korxonalarni xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirishga erishildi;

to'qimachilik korxonalarining energiya samaradorlik indeksini baholash uslubi energiya intensivligi indikatori va energiya ta'sir koeffitsientlarini hisobga olgan holda “kritik energiya holati” (0,00-0,19), “samarasiz holat” (0,20-0,39), “moddiy o'rta samaradorlik” (0,40-0,59), “barqaror samaradorlik” (0,60-0,79), innovatsion samaradorlik” (0,80-1,00) shkalalarini kiritish asosida takomillashtirish bo'yicha taklif “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasining “Ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish boshqarmasi” faoliyatida foydalanilgan (“O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasining 2025-yil 25-sentyabrdagi № 02/25-2274 sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida to'qimachilik korxonalarida energiya samaradorligini aniq va shaffof tasniflash imkoniyati yaratildi. Bu esa monitoringni kuchaytirish, tezkor qarorlar qabul qilish, 15-20 % gacha energiya tejash, ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash hamda korxonalarni xalqaro “yashil” talablar darajasiga olib chiqish imkoniyatini yaratdi;

“Toshbuloq teks” hamda “Osborn tekstil” to'qimachilik korxonalarida energiya sarfi hajmi, ishlab chiqarish quvvati, mahsulot hajmi, energiya xarajatlarining yalpi qiymatdagi ulushi, energiya samaradorligi, energiya intensivligi ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liklikni ifodalovchi ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar prognoz qiymatlari bo'yicha taklif “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasining “Ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish boshqarmasi” faoliyatida foydalanilgan (“O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasining 2025-yil 25-sentyabrdagi № 02/25-2274 sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida to'qimachilik korxonalarining 2030-yilgacha bo'lgan energiya intensivligi hamda energiya samaradorligi bo'yicha maqsadli rejalarini ishlab chiqish davomida ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha erishiladigan maqsadlar aniqligi 10% oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy anjumanlarda ma'ruza qilingan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 22 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika jurnallarida 8 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, Scopus bazasida indekslangan jurnallarda 5 ta maqola hamda 4 ta ma'ruza tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 161 betdan iborat.